TARBIYALANUVCHILARNING YOSHIGA XOS BO‘LGAN PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ORQALI QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Ma’rufova Nargiza Gulyamovna
Sirdaryo pedagogika kolleji o‘qituvchisi
E-mail: marufovanargiza@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada tarbiyalanuvchilarning qobiliyatini shakllantirishda ularning yoshiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rganish, bilim va malakalarini shakllantirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim-tarbiya, mashg‘ulot, innovatsiya, qobiliyat, psixologik xususiyat, texnologiya, jarayon, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

Annotation: The article describes the ways of using innovative technologies to study the psychological characteristics specific to their age, to form their knowledge and skills in the formation of the abilities of the students.

Keywords: Education, training, innovation, ability, psychological characteristic, technology, process, modern pedagogical technologies.

Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodning ta‘lim – tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda, ularning yetuk bo‘lib ulg‘ayishlari, zamonaviy va mumtoz ilm-fanning sir – asrorlarini mukammal egallashlari hamda barkamollik xususiyatlarini o‘zlarida mujassam eta olishlari uchun keng imkoniyatlar eshigi ochib berilgan.

Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liqdir. Atrofimizda yuz berayotgan o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks – sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin”. Darhaqiqat, yoshlar har bir mamlakatning ertangi kunini belgilovchi, buyuk kelajakning poydevorini shakllantiruvchi avlodlar hisoblanadi. Zero, millatimizning faxri bo‘lmish Abdulla Avloniy tarbiyani shunday tushuntiradi: “—Tarbiya, pedagogika, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur… Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan asrab o‘sdurmakdur”.

Albatta, yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash maktabgacha ta‘lim jarayonidan boshlanadi. Shu boisdan ham, prezidentimiz tashabbuslari bilan 2017-yil 4-yanvarda ―2017-2021-yillarda Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida‖ qaror qabul qilindi. Ushbu qarorda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, ta’lim – tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun psixologik jihatdan tarbiyalash va shart-sharoitlar yaratish maqsadi ko‘zda tutilgan.

Ma’lumki, maktabning bola shaxsiga qo‘yadigan asosiy talablaridan yana biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeining o‘zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o‘quv faoliyatining o‘ziga xosligi bilan uzviy bog‘liq. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, maktabda psixologik aniq bir mazmun doimiy hisoblanmaydi, balki u

doimo o‘zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellektual (aqliy), ma‘naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir.

5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (aqliy) tayyorligining psixologik xususiyatlaridan biri bu ulardagi obrazli dunyoqarashining oliy darajada rvojlanganligidir. Bularga tayangan xolda bola atrof-muhitdagi narsa-hodisalar o‘rtasidagi eng muhim xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu o‘rinda bolalar chizmali tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan bo‘ladilar.

Demak, bola zarur bilim, ko‘nikma va ko‘nikmalar zahirasiga ega bo‘lsa, unda intellektual rivojlanganlik darajasi ham yuqori bo‘lsa-yu o‘quvchilikning ijtimoiy holatiga shaxsan tayyor bo‘lmasa, maktabda o‘qib ketishi qiyin kechadi. Agar o‘qituvchi yoki ota-ona uni o‘qishga qiziqtira olmasalar, o‘quv vazifalarini zo‘rama-zo‘raki, sifatsiz, qo‘l uchida bajaradilar. Bunday holatlarda zarur natijalarga erishish qiyin bo‘ladi. Shuningdek, bu yoshda maktabga borishni xohlamaydigan, qaysar bolalar ham uchrab turadi. 5-7 yoshli bolaning maktabga borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoning oqibati natijasi hisoblanadi. Ayrim ota-onalarda maktabgacha yosh davridagi bolani maktab bilan qo‘rqitish hollari ham kuzatiladi.

- To‘g‘ri gapira olmasang, qanday maktabga chiqasan?
- Yozish, o‘qish, sanashni bilmaysan-ku, seni maktabga qabul qilishmaydi.
- Maktabga borsang, o‘rtoqlaringga bu qiliqlaring yoqmaydi!
- Sen bilmasvoysan, hech narsani bilmaysan, maktabga borsang uyalib qolasan kabi ta’na-dashnomlar, bolada maktabdan qo‘rqish, undan xavfsirashning shakllanishiga ham asos bo‘lishi mumkin. Bunday yondashuvlar bolani maktabdan qo‘rqishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun maktabga borgan bolalarning maktabga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, ularda o‘ziga nisbatan ishonch uyg‘otish uchun haddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e’tibor zarur bo‘ladi.

Ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishida o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bo‘lishini yodda tutishlari lozim. Ta’lim jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi ma‘lum darajada nasliy omillar bilan ham bog‘liqdir. Bolalar o‘z temperament xususiyatlariga ko‘ra ham bir-birlaridan ajralib turadilar.

Xushchaqchaq, sergap, quvnoq, hayotning o‘zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar –sangvinik temperamentga mansub bo‘ladilar.

Ko‘pincha noxush kayfiyatda yuradigan, ta’sirchan, kamgap, sust bolalar – melanxolik temperamentga kiradilar.

Xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar – flegmatiklardir.

Jaxldor, betoqat, serzarda, xarakatchan bolalar–xolerik hisoblanadilar.

Bolalar kattalarning yordamiga muxtoj bo‘lishiga qarab ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ba’zi bolalar biror hatti-harakatni bajarishni bir necha marta ko‘rsatish, tushuntirish, ketidan ergashtirish kerak. Boshqa bolalarga esa bajariladigan ish bir marotaba ko‘rsatilsa yetarli bo‘ladi. Shunday bolalar ham borki, ular berilgan vazifani mustaqil bajaradilar. Bolalar o‘zlarini qiziquvchanlik, aqliy faolliklariga qarab ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Ba’zi bolalar ko‘p savol beradilar va harakatchan bo‘ladilar, ba’zi bolalarni esa hech narsa qiziqtirmaydi.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini jadal rivojlantirish ehtiyoji bilan uni amalga oshirishga tarbiyachilarning tayyor emasligi, zamonaviy bilimlar bilan yetarli qurollanmaganligi orasidagi ziddiyat innovatsion texnologiyalardan foydalanishga ehtiyojning mavjudligini keltirib chiqarmoqda.

Haqiqatdan ham jamiyatda ―Innovatsiya tushunchasi keng va tor ma’noda ishlatiladi. Demak, innovatsiya –biror bir yangi ijtimoiy ehtiyojni yaxshiroq qondirish uchun yangi ilmiy, amaliy vosita, ya’ni yangilik yaratish, tarqatish va qo‘llashni o‘z tarkibiga oladigan kompleks jarayon sifatida tadqiq etiladi. Shuningdek, ―Innovatsiya biror bir jamoa yoki ta‘lim jarayonini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovatsiya sub‘yekti tomonidan yangilik deb qabul

qilingan bo‘lib ta’lim jarayoni ishtirokchilarini har tomonlama intellektual rivojlanishini ta’minlash maqsadida yangi vosita, uslub, yondashuvlar asosida tadqiq etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda qabul qilingan ―2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida‖gi PQ 2707 sonli qarori.

2. Rahimova R. Tarbiyachiga ming bir maslahat. //Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. -Toshkent , 2007.

3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.